

OILADAGI BURCH VA MA'SULIYAT.

Alimova Difuza Obidovna

Buxoro shahar kasb-hunar maktabi

Huquq fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada oila , oiladagi burch va ma'suliyat farzand tarbiyasi va ota-onaning oiladagi burch va majburiyatlari haqida so'z boradi.*

Tayanch so'zlar: *oilalari, qarindoshlik, nikoh , farzand tarbiyasi, oila va jamiyat rivoji.*

Oila ijtimoiy asosga ko'ra qon-qarindoshlik, qarindoshchilik yoki birga istiqomat qilish orqali bog'langan odamlardan iborat ijtimoiy guruhdir. Asosan oila bolalar ijtimoiylashuvi uchun asosiy institut vazifasini o'taydi. Antropolog olimlar oilalarni matriokal (ona va uning bolalari), er-xotin (bolalari bo'lsa, nuclear oila deyiladi) va qon-qarindosh (nuklear oila va qaynota-qaynona birga yashovchi) guruhlarga ajratishadi.

Oila huquqiy asosga ko'ra esa, nikoh yoki tug'ishganlikka asoslangan kichik guruh. Uning a'zolari ro'zg'orining birligi, o'zaro yordami va ma'naviy mas'uliyati bilan bir-biriga bog'langan bo'ladi. Oilaning eng muhim ijtimoiy vazifalari — inson zotini davom ettirishdan, bolalarni tarbiyalashdan, oila a'zolarining turmush sharoitini va bo'sh vaqtini samarali uyushtirishdan iboratdir. Oilaviy munosabatlar nisbatan mustaqil hodisa sanalsa-da, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy munosabatlar bilan belgilanadi va ular ta'sirida o'zgarib boradi. Shunga muvofiq, har bir jamiyat o'zgarib mos oila tipini, oilaviy munosabatlarni o'rnatadi. Oila xalqning, jamiyatning hayoti, turmushiga oid urf-odatlarini o'zida sinovdan o'tkazadi. Yaxshilarini o'z bag'rida asrab-avaylab kelajak avlodlarga yetkazadi. Oila o'z farzandlarini tarbiyalab, ularga umuminsoniy qadriyatlarni singdirish bilan ularga boshlang'ich ijtimoiy yo'nalish beradi. Farzandlarni katta hayotga — jamiyatga qo'shish bilan esa oila jamiyat yo'nalishi, iqtisodiyot, madaniyati va ma'rifatini ham belgilashga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shuning uchun ham Sharqda oila qadim-qadimdan muqaddas qo'rg'on hisoblanib kelingan. Oilalarning muayyan turmush tarzi shakllanib hayotiy tajribasi ortib borishi, tejamli va sarishta ro'zg'or tutishi, farzandlarni odobli, ma'naviy yetuk bo'lib kamol topishida keksalar, ota-onaning roli katta. Oilalada hammaning o'z o'rni bo'lishi, saranjom-sarishtalik, bolajonlilik, qarindoshlik rishtalarini hurmat qilinishi, mehr-oqibatli va eng asosiysi oilaga bo'lgan burch va ma'suliyatning shakllanishi jamiyatning rivojiga hissa qo'shadi. Burch



tushunchasi ham oilda shakllanadi. Burch kishining biror shaxs, oila, jamoa, el-yurt, Vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha. Bizda obyektiv munosabatlar ifodalanadi, ya'ni u jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy negizlari bilan belgilanadi. Buning oziga xos xususiyatlari mavjud bolib, u insonning ichki kechinmalari, tashqaridan turib nazorat qilinmaydigan murakkab ruhiy holatini ifodalaydi. Bu iymon-e'tiqod, onglilik, halollik, vijdon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq. Ijtimoiy va shaxsiy burch, oilada ota-onalik burchi, farzandlik burchi kabi tushunchalardan iborat bo'ladi. Burch nisbiy tushuncha. U ijtimoiy taraqqiyot jarayonida mazmunan boyib, shaklan o'zgarib boradi. Hozirgi sharoitda insonning tabiat va avlodlar oldidagi burchi yangicha mazmun kasb etmoqda. Oilaviy burch esa jamiyat oldida turgan maqsadlar bilan yanada uyg'unlashmoqda. Oila va oilaviy munosabatlarda shaxsning umummadaniy dunyoqarashini ilmiy tadqiq etishni uning jamiyat taraqqiyoti qonunlariga muvofiq rivojlanishini ifodalaydi. Oilaning rivojlanishi jamiyatning moddiy ishlab chiqarishi va ma'naviy hayoti bilan bog'liqdir. Oila shakllarining o'zgarishi, ibtidoiy jamiyat davridan boshlab barcha tarixiy bosqichlarda moddiy ishlab chiqarish ma'naviyatidagi o'zgarishlar bilan bog'liq ekanligi ilmiy adabiyotlarda keng tahlil etilgan. Lekin jamiyatning, oilaning moddiy hayot sharoitlari o'zgarishi o'z-o'zidan ma'naviy kamolotga olib kelmaydi. Madaniy qashshoq bo'lgan odam boy bo'lib qolsa, birdaniga ma'naviy kamolot darajasiga ko'tarilib qolmaydi. Pedagog-olimlar mazkur mavzuning ta'lim-tarbiyaviy jihatlarini tadqiq etib, oilaning shaxs tarbiyasida tutgan o'rniga alohida e'tibor berib, oilaviy tarbiyani umumiy tarbiyaning bir qismi sifatidagi jihatini yoritishmoqda; psixolog olimlar oila va oilaviy munosabatlarga etno-psixologik jihatdan yondoshmoqdalar. Etnograf-tarixchilar ham oilaning kelib chiqishi va oilaviy munosabatlar madaniyatining shakllanishi bilan bog'liq masalalarga to'xtalib, oilaviy urf-odatlar, an'analar, marosimlarning yoshlar tarbiyasiga ta'sirini o'rganganlar. Faylasuf olimlarimiz masalaning mohiyatini ochib berishda shaxs va jamiyatning o'zaro munosabati haqidagi umumaksiologik qonuniyatga suyanagan holda, shaxs ijtimoiy munosabatlar majmuidan iborat degan nazariy konsepsiyani o'rta ta'lim tashlaganlar. Xuddi shu konsepsiyadan esa oilada farzand tarbiyasi ijtimoiy xarakterga ega degan boshqa bir nazariy xulosa kelib chiqishi tabiiydir. Madaniyatshunoslarda oilaviy munosabatlar madaniyatining yosh avlod tarbiyasiga ta'sirini tahlil qilib kelmoqdalar. Shuni alohida ko'rsatib o'tish kerakki, Markaziy Osiyo mutafakkirlari va ma'rifatparvarlari Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Yusuf xos Xojib, Kaykovus, Devoni, Alisher Navoiy, Bobur, Munis Xorazmiy, Bedil, Behbudiy, Abdulla Avloniy, Qori Niyoziy, Cho'lpon, Fitrat va boshqalarning asarlarida oila va oilaviy munosabatlar haqida qimmatli fikrlar mavjud. Ularning ko'plarida mazkur



masalaga oid qarashlar muayyan tartibga tushirilgan va ta'limot darajasiga ko'tarilgan. Xususan, Abu Ali ibn Sinoning "Axloq", "Oila xo'jaligi", Alisher Navoiy "Hayrat-ul abror" va "Mahbub-ul qulub" asarlarida oilaga alohida e'tibor bilan qarab, uni inson kamolga erishuvida asosiy makon deb bilganlar. XX asr boshlaridagi ma'rifatparvarlik harakatining asoschilaridan biri Fitratning "Oila" asarida oila asosini to'g'ri qurish, oilada yosh avlodga jismoniy, aqliy va axloqiy tarbiya berish orqali mana shu turg'unlikdan qutilish, jamiyatni isloh qilish mumkinligini bayon qilgan. "Millat taqdiri mana shu millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog'liqdir... Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi." deb yozadi. Oiladagi o'zaro munosabatlar madaniyati malakasi tasavvuf falsafasida ham alohida o'rin tutadi. Bu falsafaning yirik vakillari bo'lgan Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro tariqatlarida ota va onalar o'zaro munosabatlarining farzandlar kamolotidagi roli, farzandlarning ota-onalarga bo'lgan munosabati mavzui alohida ta'kidlab o'tilganligini ko'ramiz. Shuningdek, ulug' ulamolar bo'lmish Al-Buxoriy, At-Termiziylarning hadis to'plamlarida, asarlarida ham mazkur mavzuga katta e'tibor berilgan. Qur'ondan keyingi diniy manba – hadislarda Payg'ambarimiz Muxammad (s.a.v.) aytdilar: "Alloh taoloning rozi bo'lishi ota-onaning rozi bo'lishiga va Allohning g'azabi ham ota-onaning g'azabiga bog'liqdir" (Imom Buxoriy rivoyati). Haqiqatdan ham ota-onaga ozor bermaslik, ularning dilini vayron qilmaslik, muloyimlik bilan suhbatda bo'lish, ko'nglini ko'tarish aytganlarini vaqtida bajarish, farzandning ota-ona oldidagi burchidir. Mustaqillik davrida oila-nikoh munosabatlarining huquqiy tartibga solinishi masalalarini F. Otaxo'jayev, o'zbek oilalari ma'naviyatining tarixiy asoslari, ma'naviy ruhiyati, an'analari, farzandlar tarbiyasi muammolarini istiqlol mafkurasi nuqtai nazaridan O. Safarov, M. Mahmudovlar tahlil etsalar, oilaning jamiyatda tutgan o'rni, oilaviy tarbiya, oila a'zolarining oiladagi o'rni, oilada milliy va umuminsoniy tarbiya masalalarining pedagogik nuqtai nazardan O. Musurmanova, oilaning mohiyati, ota-onalarning bola tarbiyasidagi mas'uliyati, farzandlik burchiga oid ba'zi milliy diniy an'alarimizni E. Yusupov, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga oid masalalarni M. Xalmatovalar tahlil qilganlar. Oila turlarining demografik, ijtimoiy tuzilishlariga qarab bo'linishining o'ziga xos xususiyatlari hamda uning oilaviy munosabatlar madaniyatiga ta'siri mavjud. Mamlakatimizda mavjud oilalarning aksariyati to'liq oilalardir. To'liq oila deganda ota-ona va farzandlardan iborat oila tushuniladi. Bu tipik oilaga xos xususiyatdir. Bunday oilalar, o'z navbatida, patriarxal, nuklear, mezalyanslarga bo'linadi. O'zbekistonning o'ziga xos xususiyati yana shundaki, hozirda o'zbek oilalardagi katta patriarxal oila xo'jaligi ham saqlanib qolingan. Bunda 2-3 avlod xo'jaligi umumiy bo'lib, ularning iqtisodiy



birligining asosi hisoblangan oila mulki faqat oila boshlig'i qo'lida bo'ladi va hamma unga bo'ysinadi. Mana shu sababli ham qarindosh – urug'larning quda-andachilik munosabatlari davom qilib kelayapti. Qonunchilik oiladagi ma'suliyat burch va majburuyatlar orqali belgilangan bo'lib, unga ko'ra ota-ona o'z bolalarini tarbiyalash huquqiga ega va tarbiyalashi shart. Ota-ona o'z bolalarining tarbiyasi va kamoloti uchun javobgardir. Ular o'z bolalarining sog'lig'i, jismoniy, ruhiy, ma'naviy va axloqiy kamoloti haqida g'amxo'rlik qilishlari shart. Bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish ularning ota-onasi zimmasiga yuklatiladi. Ota-ona o'z bolalarining qonuniy vakillari hisoblanadilar hamda har qanday jismoniy va yuridik shaxslar bilan bo'lgan munosabatlarda, shu jumladan sudda alohida vakolatsiz ularning huquq va manfaatlarini himoya qiladilar. Ota-ona o'z bolalarini tarbiyalashda boshqa barcha shaxslarga nisbatan ustun huquqqa ega. Ota-ona bolalarining qonun hujjatlarida belgilangan zarur darajada ta'lim olishini ta'minlashi shart. Ota-ona voyaga yetmagan bolalariga ta'minot berishi shart. Ota va ona o'z bolalariga nisbatan teng huquq va majburiyatlarga egadirlar. Farzand to'la muomalaga layoqatli bo'lsa, uning majburiyatlari bo'yicha, xususan, u yetkazgan zarar oqibatida kelib chiqqan majburiyatlar bo'yicha ona-onalar javobgar bo'lmaydilar. Xulosa qilib aytganda, oilaning zimmasiga ulkan va zarur ijtimoiy missiya yuklangandir. Bola tarbiyasi eng og'ir ijtimoiy vazifa ekanligi ayondir. Ota va onaning shaxsiy va ijobiy namunasi solih va soliha farzandlarning kamolga yetishi uchun garovdir. Ostona hatlab tashqi dunyoga qadam qo'yilganida esa bolaga atrof-muhit va jamoatchilikning ta'siri sezilarli bo'ladi. Ta'lim muassasalari va mahalla-kuy, umuman, ijtimoiy sfera muhiti inson farzandini to'layotgan hayotining so'ngi daqiqasigacha ta'qib qilib boradi. Shu boisdan, oilaviy munosabatlarda shaxsning umummadaniy dunyoqarashini shakllantirishga erishish, nafaqat shaxsiy hayotda, balki, mamlakatimizda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va ularning taraqqiyoti jamiyatning ruhiy va ma'naviy takomilida ham muhim o'rin tutadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Оила психологияси: Дарслик. Педагогика олийгоҳлари талабалари учун В.М.Каримова. — Т.: 2007
2. Оилавий ҳаёт психологияси: Ўқув қўлланма. Каримова В — Т.: 2006
3. Оила психологияси: Акад. литсей ва касб-ҳunar коллежлари о'қувчилари учун о'қув қo'ли. / G. B. Shoumarov, I. O. Haydarov, N. A. Sog'inov va boshq.; G'. B. Shoumarovning tahriri ostida; — Т.: «Sharq», 2010.
4. O'zbekiston Milliy Ensiklapediyasi (2000-2005)





5. Fuqarolik va oila huquqi.T. Xolmo'minov .N.S, Narmatov N.A, Qo'ldoshev T.:2017.

6.O'zbekiston Respublikasi oila kodeksiga sharxlar.T.: Adolat 2001

